

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya» kafedrasida assistenti Z.Sh. Shodiyevaning Biotexnologiya va ekologiya fakulteti, Veterinariya farmatsevtikasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs 105- guruh talabalariga Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan «Dorivor o'simliklar xom ashyosini tayyorlash, quritish, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi» mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasiga**  
**TAQRIZ**

«Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, talabalarni zamon talablariga mos ravishda o'qitishda keyingi yillarda o'z ijobiy samarasini berayotgan yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Biologiya fanlari orasida botanika, o'simlikshunoslik, dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi, hozirda ko'plab tarmoqlari rivojlanayotgan fanlar sirasiga kiradi. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi qishloq xo'jalik xodimlar, ayniqsa farmatsevtika mutaxassislari tayyorlaydigan yo'nalishlarda ayniqsa ahamiyati katta. Veterinariya farmatsevtikasi ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarida Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan jami 240 soat ajratilgan bo'lib, ma'ruza 40 soat, amaliy mashg'ulot 40 soat, laboratoriya mashg'ulotlari 40 soat, mustaqil ta'lim 120 soatni tashkil etadi. Butun bir fan davomida talabalarga Dorivor o'simliklarni tabiiy zaxiralari, ularni kamyob turlarini muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, introduksiya qilish, chuqur o'rgatib bo'lmaydi. Shuning uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash orqali bu vazifani to'laligicha bajarish mumkin.

Mazkur amaliy mashg'ulot ishlanmasida Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanining eng muhim mavzusi hisoblanib dorivor o'simliklarni yig'ish, quritish, saqlash, standard holiga keltirish va qayta ishlash texnologiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Dastlab mavzuni o'qitish texnologiyasi batafsil yoritilgan. Keyin mashg'ulotning maqsadi, topshiriqlar, ob'yektlar, kerakli materiallar, umumiy tushuncha keltirilgan. Umumiy tushunchalarda dorivor o'simliklarni yig'ish, quritish, saqlash, standard holiga keltirish va qayta ishlash texnologiyasi batafsil yoritilgan. Oxirida bilimni mustahkamlovchi savollar va so'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlar o'rin olgan. O'qituvchi mavzuni mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar asosida topshiriqlarni tuzgan. Internet ma'lumotlari hamda yangi adabiyotlarga murojaat etgan.

Xulosa qilib aytganda, Z.Sh. Shodiyeva tomonidan tayyorlangan ushbu laboratoriya mashg'uloti ishlanmasi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, Biotexnologiya va ekologiya fakultetida ta'lim olayotgan talabalar bilim va ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**Samarqand filiali Tabiiy, ijtimoiy fanlar**  
**va jismoniy madaniyat kafedrasida dotsent**



**E.I. Xamdamova**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya» kafedrasida assistenti Z.Sh. Shodiyevaning Biotexnologiya va ekologiya fakulteti, Veterinariya farmatsevtikasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs 105- guruh talabalariga Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan «Dorivor o'simliklar xom ashyosini tayyorlash, quritish, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi» mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasiga**  
**TAQRIZ**

Tibbiyot soxasidagi islohatlar jarayonida ba'zi xastaliklarni davolashda tabiiy darmondorilarning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanmoqda. Shu bois mamlakatimizda shifobaxsh o'simliklarni ko'paytirish va ularni qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha davlat dasturlari asosida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'simlik maxsulotlaridan tayyorlangan dori-darmon preparatlari bir qator xastaliklarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Ular inson a'zolariga bezararli bilan ajralib turadi. Ular uzoq vaqt mobaynida qo'llanilsada, organizmda asorat qoldirmaydi. Shu sababdan dorivor o'simliklardan foydalanish katta tarixga ega bo'lib, qadim-qadimdan insonlar turli kasalliklarni davolashda o'simliklardan foydalanib kelmoqdalar.

Veterinariya farmatsevtikasi mutaxassislari tayyorlaydigan yo'nalishlarda ayniqsa ahamiyati katta. Veterinariya farmatsevtikasi mutaxassisligi o'quv dasturlarida Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fani uchun jami 240 soat ajratilgan bo'lib, ma'ruza 40 soat, amaliy mashg'ulot 40, laboratoriya mashg'ulotlari 40 soat, mustaqil ta'lim 120 soatni tashkil etadi. Butun bir fan davomida talabalar dorivor o'simliklarni yetishtirishni chuqur o'rgatib bo'lmaydi. Shuning uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash orqali bu vazifani to'laligicha bajarish mumkin.

Mazkur amaliy mashg'uloti ishlanmasida dastlab mavzuni o'qitish texnologiyasi batafsil yoritilgan. Keyin mashg'ulot rejasi, dorivor o'simliklarning bargi, guli, mevasi, kurtagi, poyasi, ildizi, ildiz poyasi, tuganaklarini yig'ish, tozalash, quritish va qayta ishlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Oxirida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib bilimni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar o'rin olgan. Yangi adabiyotlardan foydalangan.

Z.SH.Shodiyeva tomonidan tayyorlangan ushbu amaliy mashg'uloti ishlanmasi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, Veterinariya farmatsevtikasi mutaxassisligi talabalar bilim va ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
«Biotexnologiya» kafedrasida mudiri, dotsent**



**N.J.Xodjayeva**